

Sirdaryo viloyati 120100, Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, Hondamir ko'chasi, 7-uy, Tel/Faks: +998 67 226-06-61, E-mail:
sirdarya_davekspert@mail.ru, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Boshqarma boshlig'i: Bahodirov Saidaxmad Ulug'bekovich

Sana: 21-05-2024 yil



YIG'MA EKSPERT XULOSASI

206706 - SONLI

Obyekt nomi: "Toshkent viloyati Olmaliq shahar Mustaqillik MFY hududiga Mahalla fiqarolar yig'ini binosini hamda pastki qavati maishiy xizmat ko'rsatish majmuasi bo'lgan yuqori 2, 3, 4, 5-qavatlari turar-joy hamda (Pent-Xausli) binolari bo'lgan 2 ta 5 qavatli turar-joy binolarini qurish"	
Buyurtmachi:	ALTER BUSINESS XK
Bosh loyihachi:	"GOLDEN STAR ENGINEERING" mas'uliyati cheklangan jamiyati
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	Tender tanlovlari asosida aniqlanadi
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	011129

1. Loyihalash uchun asos.

- 1.1. Toshkent viloyati Olmaliq shahar hokimining 2020-yil 15-sentabrdagi 380-sonli qarori.
- 1.2. Toshkent viloyati Olmaliq shahar hokimligining 2023-yil 30-oktyabrdagi Yu-21-sonli xati.
- 1.3. Belgilangan tartibda tasdiqlangan va kelishilgan loyiha topshirig'i.
- 1.4. Toshkent viloyati Qurilish bosh boshqarmasining 2024-yil 5-fevraldagi 1727-1727404-177168-sonli Arxitektura-rejalashtirish topshiriqlari. (Qayta rasmiylashtirildi)
- 1.5. "Geodelta" MChJining muhandislik-geologik sharoitlari to'g'risidagi xulosa.
- 1.6. Buyurtmachi tashkilot bilan loyihachi tashkilot o'rtasida 2024-yil 4-yanvardagi 01/01-2024-sonli shartnoma.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

Loyiha tarkibiga ko'ra "Toshkent viloyati Olmaliq shahar Mustaqillik MFY hududiga Mahalla fiqarolar yig'ini binosini hamda pastki qavati maishiy xizmat ko'rsatish majmuasi bo'lgan yuqori 2, 3, 4, 5-qavatlari turar-joy hamda (Pent-Xausli) binolari bo'lgan 2 ta 5 qavatli turar-joy binolarini qurish" obyekt bo'yicha loyiha-smeta hujjatlarining elektron shakli.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Loyihada "Toshkent viloyati Olmaliq shahar Mustaqillik MFY hududiga Mahalla fiqarolar yig'ini binosini hamda pastki qavati maishiy xizmat ko'rsatish majmuasi bo'lgan yuqori 2, 3, 4, 5-qavatlar turar-joy hamda (Pent-Xausli) binolari bo'lgan 2 ta 5 qavatli turar-joy binolarini qurish" ishlarini amalga oshirish nazarda tutilgan.

3.2. Qurilish hududining tabiiy-iqlim sharoitlari.

Tashqi havoning qishki hisobiy harorati – minus 14 C.

Normativ shamol bosimi – $W_o = 0,38$ kPa.

Normativ qor qatlami vazni – $S_n = 0,50$ kPa.

Qurilish hududining zilzilabardoshligi – 7 ball.

Loyihaning xisobiy zilzilabardoshligi – 8 ball.

Funksional yong'in xavfliligi bo'yicha sinfi – F1.3

Konstruktiv yong'in xavflilik sinfi – C0

3.3. Ekspertizaga topshirilgan loyiha-smeta hujjatlari:

1. Umumiy tushuntirish xati
2. Bosh reja loyihasi. BR
3. Arhitektura yechimlari. AY
4. Konstruktiv yechimlari. KY
5. Energiya samaradorligi. ES

3.4. Bosh reja va arxitektura rejalashtirish yechimlari.

Bosh reja loyihasi texnik topshiriqlar asosida ishlab chiqilgan. Binolarni joylashtirish yong'in va sanitariya standartlariga muvofiq ishlab chiqarilgan va loyihaning qurilish va texnologik qismlariga qo'yiladigan talablar asosida. Vertikal tartib drenaj talablari asosida. Hudud bosh rejada qizil chiziq bilan chegaralangan. Bino atrofida yong'in xavfsizligi qoidalariga binoan o't o'chirish yo'lagi ko'zda tutilgan hamda yondosh binolari oraliq masofasi inobatga olingan.

3.5. Bosh rejada quyidagi binolar va inshootlar ko'zda tutilgan:

- Turar joy binosi №1;
- Turar joy binosi №2;
- Besedka;
- Bolalar maydonchasi;
- Avtoturargoh;
- Chiqindi yig'ish joyi;
- Yong'inga qarshi gidrant;
- MFY binosi.

3.6. Texnik va iqtisodiy ko'rsatkichlar:

- hududning umumiy maydoni – 2522,0 m²
- qurilish maydoni - 1346,00 m²
- umumiy yashil maydoni - 215,00 m²
- yo'l qoplama – 613,00 m²

3.7. Arxitektura - qurilish qismi:

6 qavatli turar – joy binosi №1

Turar-joy binosi 6 qavatdan iborat bo'lib, 26 ta honadon loyihalashtirilgan. Bino loyiha tarhiga ko'ra to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lib, o'qlardagi o'lchamlari 16.0 x 32.0 m, umumiy balandligi 23,6 m. Bino 6 qavatida penthaus loyihalashtirilgan va yer osti qavatiga ega. Turarjoy binosining yer osti qavatida texnik xonalar ko'zda tutilgan. Xonalar tarkibi loyiha topshirig'iga ko'ra bajarilgan. 1-qavat noturar, 2-qavatdan - 6-qavatgacha 2 va 3 xonali namunaviy xonadonlar mavjud. Xonadonlar tarkibida - yo'lak, yotoqxona, oshxona, bolalar

yotoqxonasi, yuvinish xonasi, xojatxona, balkon. Bino 1 podyezdli va yer osti qavatiga ega. Yer osti qavatning poldan shiftgacha balandligi $h=3.0\text{m}$, poldan-polgacha $h=3.3\text{m}$. 1-chi qavatning poldan shiftgacha balandligi $h=3.6\text{m}$, poldan-polgacha $h=3.9\text{m}$. 2-6 qavatlar poldan shiftgacha balandliklari $h=3.0\text{m}$, poldan-polgacha $h=3.3\text{m}$. Binoga bitta kirish yo'lagi ko'zda tutilgan. 1-qavatga kirishda zina va pandus loyihalashtirilgan. Binoda L1 turidagi 1ta zinapoya katakchasi va 1 ta lift joylashtirilgan.

6 qavatli turar – joy binosi №2

Turar-joy binosi 6 qavatdan iborat bo'lib, 32 ta honadon loyihalashtirilgan. Yer osti qavatiga ega emas. Bino loyiha tarhiga ko'ra to'g'ri-to'rtburchak shaklida bo'lib, o'qlardagi o'lchami $16.0 \times 32.0 \text{ m}$, umumiy balandligi $23,6 \text{ m}$. Binoning 6 qavatida penthaus loyihalashtirilgan. Xonalar tarkibi loyiha topshirig'iga ko'ra bajarilgan. 1-qavatdan - 6-qavatgacha 2 va 3 xonali namunaviy xonadonlar mavjud. Xonadonlar tarkibida - yo'lak, yotoqxona, oshxona, bolalar yotoqxonasi, yuvinish xonasi, xojatxona, balkon. Bino 1 podyezdli. 1-chi qavatning poldan shiftgacha balandligi $h=3.6\text{m}$, poldan-polgacha $h=3.9\text{m}$. 2-6 qavatlar poldan shiftgacha balandliklari $h=3.0\text{m}$, poldan-polgacha $h=3.3\text{m}$. Binoga bitta kirish yo'lagi ko'zda tutilgan. 1-qavatga kirishda zina va pandus loyihalashtirilgan. Binoda L1 turidagi 1ta zinapoya katakchasi va 1 ta lift joylashtirilgan.

Mahalla fuqarolar yig'ini binosi

Bino 1 qavatdan iborat. Bino to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lib, o'qlardagi o'lchami $18.96 \times 9.84 \text{ m}$, umumiy balandligi $4,2 \text{ m}$. Xonalar tarkibi loyiha topshirig'iga ko'ra bajarilgan. 1-chi qavatning poldan shiftgacha balandligi: $h=3.0\text{m}$. Binoga bitta kirish yo'lagi ko'zda tutilgan. 1-qavatga kirishda zina va pandus loyihalashtirilgan.

3.8. Energiya samaradorlik:

SHNK 1.03.01 p5. talablariga muvofiq binoning energiya pasportini o'z ichiga olgan "energiya samaradorligi" yechimi, 10.5-bandning 2.03.10-2019-bandiga va tashqi issiqlik izolyatsiyaning muvofiq ishlab chiqilgan.

SHNK 1.03.01 va 2.03.10-2019 muvofiq ilova 10.5 talablariga muvofiq binoning energiya pasporti taqdim qilingan. KMK 2.01.04 2018 issiqlik muhandislik hisobi. 2-issiqlik himoya darajasi ishlab chiqilingan.

Binoning har bir blok uchun $0,550 \text{ kVt}$ lik 37 dona, jami quvvati $20,35 \text{ kVt}$ quyosh kollektorlari o'rnatilishi rajalashtirilgan, hamda 54 kVt li 4 dona hajmi 300 litr lik ikki valentlik sig'imli suv isitgich tizimlaridan foydalanish nazarda tutilgan.

6 qavatli turar – joy binosi 26 honadonli bo'lib quyidagicha honadonlardan iborat: №1

2-honali honadon - 20 dona;

3-honali honadon - 6 dona.

6 qavatli turar – joy binosi 26 honadonli bo'lib quyidagicha honadonlardan iborat: №2

2-honali honadon - 25 dona;

3-honali honadon - 7 dona.

3.9. Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar: №1

Qurilish maydon – 512.00 m^2

Umumiy maydon – 612.00 m^2

Qurilish hajmi – 16415.00 m^3

3.10. Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar: №2

Qurilish maydon – 512.00 m^2

Umumiy maydon – 612.00 m^2

Qurilish hajmi – 16415.00 m^3

Ichki pardozlash:

Devorlar va pardevorlar – suvoq, yengil tonlarda suv emulsiyasi bo'yoqlar bilan bo'yash.

Pol – Keramik plitka, Laminat

Eshiklar – Metal, MDF, Alyumin

Shift – suvoq va suvli bo'yoq bilan bo'yalgan

Tashqi pardozlash:

Devorlari – G'isht 380mm, 100 mm issiqlik izolyatsiyasi bilan qo'plangan, suyuq travertin yakunlovchi suvoq

Poypesh – Italogranit

Eshiklar - Metal

Oynalar – Plastik

Vitraj - Plastik

Binoga kirish qismida – zina va pandus mavjud (ustki qoplamasi italogranit).

3.11. Konstruktiv echim:

Ko'p qavatli uy-joy binosi. Blok-1.

Blok-1 ko'p qavatli turar-joy binosi 6-qavatli, binoga bitta dahliz orqali kirish joyi mavjud. Bino rejasi o'q chiziqlari bo'yicha to'rtburchaklar shaklda, yerto'la qavati bilan loyihalangan.

Poydevor – Yahlit monolit temir-beton plitalardan.

Ustunlar – Monolit temir-beton.

Tosinlar – Monolit temir-beton.

Devorlar – G'ishtli peno beton yoki gazoblokdan.

Pardevorlar – G'ishtli betonli blokdan.

Orayopma va tom yopma - Yig'ma temir beton, aylana kovakli plitadan.

Zinapoyalar – Monolit temir-betondan.

Tom yopmasi – Chordoqli yog'och konstruksiyadan iborat.

Tom qoplamasi – Profil yuzali rangli metal qoplama.

Otmotka – Beton qoplamali eniga 1000mm.

Ko'p qavatli uy-joy binosi. Blok-2.

Blok-2 ko'p qavatli turar-joy binosi 6-qavatli, binoga bir dahliz orqali kirish joyi mavjud. Bino rejasi o'q chiziqlari bo'yicha to'rtburchaklar shaklda, yerto'lasiz loyihalangan.

Poydevor – Yahlit monolit temir-beton plitalardan.

Ustunlar – Monolit temir-beton.

Tosinlar – Monolit temir-beton.

Devorlar – G'ishtli peno beton yoki gazoblokdan.

Pardevorlar – G'ishtli betonli blokdan.

Orayopma va tom yopma - Yig'ma temir beton, aylana kovakli plitadan.

Zinapoyalar – Monolit temir-betondan.

Tom yopmasi – Chordoqli yog'och konstruksiyadan iborat.

Tom qoplamasi – Profil yuzali rangli metal qoplama.

Otmotka – Beton qoplamali eniga 1000mm.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Elektr ta'minoti:

Uy №1. Loyihaning umumiy ko'rsatmalar qismida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra loyihalananayotgan ob'ekt elektr ta'minotining ishonchliligi darajasiga ko'ra - II toifaga kiradi. Binoning elektr ta'minoti tashqi elektr taqsimlash qurilmalari orqali 380 V kuchlanishdagi ikkita kabel tarmoqlari yordamida elektr bilan taminlanadi. Loyihaga ko'ra binoga asosiy elektr taqsimlash shiti (VRU) o'rnatilishi nazarda tutilgan. (VRU) asosiy elektr taqsimlovchi shiti sifatida VRU1-24-50UXL4, bo'lishi ko'rsatilgan. Elektr energiya sarfi nazorati uchun har bir qavatdagi xonadaonlar uchun bir fazali elektr hisoblagichlar o'rnatilishi nazarda tutilgan. Ob'ektning elektr yoritish qurilmalari sifatida zamonaviy LED chiroqlari o'rnatilishi nazarda tutilgan. Loyihadagi asosiy elektr taqsimlovchi shitlarning quvvatlari: VRU-1 ning o'rnatilgan quvvat $R_o' = 127,0$ kVt, hisoblangan quvvat $R_r = 101,6$ kVt, hisoblangan toki $I_h = 164,0$ A ni tashkil qilgan. Binonig tom qismiga 37 dona 550 Vt quvvatli quyosh panellari 25 kVt quvvatli invertor orqali ulanishi ko'rsatilgan. Elektr energiyasini taqsimlash uchun PV-3 va PPV turidagi turli kesimdagi kabellardan foydalanilgan.

Uy №2. Loyihaning umumiy ko'rsatmalar qismida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra loyihalananayotgan ob'ekt elektr ta'minotining ishonchliligi darajasiga ko'ra - II toifaga kiradi. Binoning elektr ta'minoti tashqi elektr taqsimlash qurilmalari orqali 380 V kuchlanishdagi ikkita kabel tarmoqlari yordamida elektr bilan taminlanadi. Loyihaga ko'ra binoga asosiy elektr taqsimlash shiti (VRU) o'rnatilishi nazarda tutilgan. (VRU) asosiy elektr taqsimlovchi shiti sifatida VRU1-24-50UXL4, bo'lishi ko'rsatilgan. Elektr energiya sarfi nazorati uchun har bir qavatdagi xonadaonlar uchun bir fazali elektr hisoblagichlar o'rnatilishi nazarda tutilgan. Ob'ektning elektr yoritish qurilmalari sifatida zamonaviy LED chiroqlari o'rnatilishi nazarda tutilgan. Loyihadagi asosiy elektr taqsimlovchi shitlarning quvvatlari: VRU-1 ning o'rnatilgan quvvat $R_o' = 144,7$ kVt, hisoblangan quvvat $R_r = 115,76$ kVt, hisoblangan toki $I_h = 186,7$ A ni tashkil qilgan. Binonig tom qismiga 37 dona 550 Vt quvvatli quyosh panellari 25 kVt quvvatli invertor orqali ulanishi ko'rsatilgan. Elektr energiyasini taqsimlash uchun PV-3 va PPV turidagi turli kesimdagi kabellardan foydalanilgan.

MFY binosi.

Loyihaning umumiy ko'rsatmalar qismida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra loyihalananayotgan ob'ekt elektr ta'minotining ishonchliligi darajasiga ko'ra - III toifaga kiradi. Loyihaga ko'ra binoga asosiy elektr taqsimlash shiti (ShS-1) o'rnatilishi nazarda tutilgan. (ShS-1) asosiy elektr taqsimlovchi shiti sifatida PR8503, bo'lishi ko'rsatilgan. Ob'ektning elektr yoritish qurilmalari sifatida zamonaviy LED chiroqlari o'rnatilishi nazarda tutilgan. Loyihadagi asosiy elektr taqsimlovchi shitlarning quvvatlari: ShS-1 ning o'rnatilgan quvvat $R_o' = 5,92$ kVt, hisoblangan quvvat $R_r = 4,74$ kVt, hisoblangan toki $I_h = 7,7$ A ni tashkil qilgan. Elektr energiyasini taqsimlash uchun VVG turidagi turli kesimdagi kabellardan foydalanilgan.

4.2. Sovuq va issiq suv ta'minoti:

Ichki suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini hisoblash va loyihalash KMK 2.04.01-98 "Binolar ichki vodoprovod kanalizatsiyasi"ga muvofiq amalga oshiriladi, tashqi ichimlik suv va oqava suv tarmoqlari KMK 2.04.02-97 "Suv ta'minoti. Tashqi tarmoqlar va inshootlar", KMK 2.04.03-97 "Kanalizatsiya. Tashqi tarmoqlar va tuzilmalar" talablariga asosan ishlab chiqilgan. Talab etilgan suv sarfi 35 m³/sut.

Sovuq va issiq suv tizimlari PPRS Ø 20....50mm polipropilen quvurlardan ishlab chiqilgan, ohiri berk. B1 va T3 tizimlarining quvurlari KMK 2.04.01-98, 9.8-bandga muvofiq yashirin yotqizilgan. Issiq suv har bir xonadondagi elektr suv isitgichlari orqali iste'molchiga yetkaziladi. Sovuq suv sarfi nazoratini olib borish uchun xar bir xonadonga suv o'lchagichlar, shuningdek, suvni tozalash uskunasi inobatga olingan.

Bosimni oshirish maqsadida nasos honasida xo'jalik va iqtisodiy $Q_{max} = 2.5 \text{ m}^3/\text{soat}$, $H_{max} = 20 \text{ m}$ N-1.5kv (1-ishchi, 1-zaxira) nasoslar o'rnatiladi.

Ichki oqava suv tarmoqlari:

Oqava suv tarmoqlarini yotqizish d-50mm, d-100mm (GOST23759-85) polietilen quvurlardan, yashirin tarzda amalga oshiriladi. Shuningdek, suvni tozalash uskunasi va suv ko'tarish darajasiga qarab ishlovchi drenaj nasos o'rnatiladi. Oqava suvlarni chiqarish tashqi kanalizatsiya quduqlariga ulanadi (K-1-1....K-1-4).

Loyiha doirasida qavatlar, chodirlar va tomlar orasidagi barcha quvurlar issiqlik izolyatsiyasi bilan qoplangan.

Sanitariya-texnik vositalari:

san.uzellarda qo'l yuvish uskunalari (umival'nik), unitazlar, vannalar va oshxonada idish yuvish qozonlari (moyka) joylashtirilgan.

Tashqi ichimlik va oqava suvi tarmog'i:

Tinchlik ko'chasi 26a-uydagi ko'p qavatli uy-joy qurilishi uchun suv ta'minoti, shu ko'chadagi mavjud d-160mm markaziy suv quvuridan d75mm polietilen quvur bilan amalga oshiriladi. Suv tarmoqlari 1,2 metr chuqurlikda yotqiziladi, loyiha doirasida 2 dona yong'inga qarshi gidrant o'rnatish inobatga olingan.

Oqava suv tarmoqlarini yotqizish d-160mm bo'lgan polietilen quvurlardan loyihalashtirilgan. Quvurlar 0.65...1.55m chuqurlikda joylashtiriladi. Oqava suvlar hududda qurilishi mo'ljallangan temir-beton quduqlarga chiqariladi va shu ko'chadagi mavjud d-300mm bo'lgan markaziy tarmoq orqali hududdan chiqariladi.

4.3. Isitish va shamollatish tizimlarini loyihalashda:

Isitish va shamollatish loyihasi loyiha topshirig'iga muvofiq ishlab chiqilgan. Isitish uchun tashqi havo harorati -12°C , ichki havo harorati SHNK 2.01.01-22 " iqlim va fizik-geologik ma'lumotlar. Isitish tizimi uchun polipropilen quvurlar yotqizish yopiq tarzda amalga oshiriladi. Issitish tizimi gorizontal ikki quvurli qabul qilingan. Issitish jihozi sifatida alyumin radiatorlar $H=500 \text{ mm}$. issiqlik uzatilishi 176 kVt qabul qilingan. Issiqlik ta'minoti va issiqlik tarmog'i qurish ko'zda tutilgan bo'lib yangi binolar uchun yangi qozonxonalarini o'rnatiladi va 300 kv modulli qozon o'rnatish ko'zda tutilgan. Shamollatish tizimi tabiiy va mexanik usulda amalga oshirilgan va oshxona pechkalari ustida xovo chiqib ketish qurilmalari (Vityajka) ko'zda tutilgan.

4.4. Yong'in signalizatsiyasi.

Loyihaning ushbu bo'limi dizayn xususiyatlari va QMQ 2.04.20-98, MKM 01-04 ga muvofiq ishlab chiqilgan. Loyiha xavfsizlik va yong'in signalizatsiya tarmoqlarini o'rnatishni nazarda tutadi. Abonent tarmog'i (KSVVG-2x0,5 mm²) ochiq simli va PVX kabel kanallarida olib boriladi va dahliz o't o'chirish stantsiyasida o'rnatilgan Pribor priyomnokontrolniy i upravleniya oxrana pojarniy "Altay-4" rusumli boshqaruv panellariga chiqariladi. Yong'in va o'g'irlik signalizatsiyasining elektr qabul qiluvchilarini elektr ta'minoti 3 - toifaga kiradi va bitta mustaqil quvvat manbalaridan amalga oshiriladi. Asosiy quvvat 220V, 50Gts o'zgaruvchan tok bilan ta'minlanadi.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi Toshkent viloyati Qurilish bosh boshqarmasi loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo'yicha Arxitektura va Shaharsozlik kengashi ishchi organining 2024-yil 19-martdagi 113717830-sonli xulosasi.

5.2. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, Atrof-muhitni muhofaza qilish va Iqlim o'zgarishi vazirligi Davlat Ekologik Ekspertizasi markazi Toshkent viloyati filialining 2022-yil 2-martdagi

05/2-420-sonli Davlat Ekologik ekspertizasi xulosasi.

5.3. "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ Toshkent hududiy filialining elektr tarmoqlariga ulanish uchun 2023-yil 11-oktyabrdagi 43-26/3230- sonli texnik sharti.

5.4. "Toshkent suv ta'minoti" MChJning Olmaliq shahar bo'limi 2023-yil 12-oktyabrdagi 174/02-sonli texnik shart.

5.5. "Hududgaz Toshkent" GTF ning 2023 yil 25 oktyabrdagi 040020-sonli texnik sharti.

5.6. Ishchi loyihani tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor tashkilotlar bilan kelishish lozim.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko'ra qo'shimcha qiymat solig'i (QQS) bilan **26 643 973 821** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati **0** so'mga kamaytirilib, **26 643 973 821** so'mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **23 082 089 689** so'm

Asbob-uskunalar: **707 172 651** so'm

QQS: **2 854 711 481** so'm

6.1. Smeta hujjatlari ekspertizaga buyurtmachining e'tirozlarisiz taqdim qilindi.

6.2. Ekspertiza jarayonida soxa ekspertlari xulosasi izohlari buyurtmachi va loyihachi tomonidan qabul qilinib, loyihaga tuzatishlar va qo'shimchalar kiritildi.

6.3. Obyektning qurilish narxi "Qurilish iqtisodiyoti instituti" MChJ tomonidan ishlab chiqilayotgan joriy narxdagi kataloglar, birja, amaldagi (haqiqiy, bozor sharoitlariga ko'ra) narxlar va joriy vaqtda faoliyat olib borayotgan internetdagi bozor narxlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan va ekspertizaga taqdim etilgan.

Tavsiya etilayotgan qiymat miqdori buyurtmachi va pudratchi o'rtasida shartnoma tuzishga asos bo'la olmaydi.

Buyurtmachi va loyihachi tashkilotlarga izoh va takliflar:

- Bino va inshootlarni qurish vaqtida, asos qatlami yer ishlarida tuprog'ining cho'kishi va agressiv xususiyatlarini hisobga olgan holda qazish vaqtida qat'iy nazoratni amalga oshirish.

- Texnologik uskunalar uchun yuk ko'taruvchi konstruksiyalarni qurish buyurtmachi va texnologik uskunalar ishlab chiqaruvchilari bilan kelishilgan holda amalga oshirilishi kerak.

6.4. O'zbekiston Respublikasining 22.04.2021 yildagi 684-son Qonuni va O'zbekiston Respublkasi Vazirlar Mahkamasining 31.01.2022 yildagi 46-son qarori va ShNQ 4.01.16-09 me'yorlariga muvofiq obyektning qiymati buyurtmachi tomonidan belgilanadi. Tasdiqlash uchun tavsiya etilgan yangi qurilish ishlari narxi bo'yicha asosiy qarorni buyurtmachi va bosh pudrat korxonasi tomonidan shartnomaviy munosabatlar orqali amalga oshiriladi.

6.5. Smeta hujjatlarida ko'rsatilgan pudratchining boshqa harajatlari miqdori bo'yicha "Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi qilish Respublika markazi" DM Sirdaryo viloyati hududiy boshqarmasi majburiyatini o'z zimmasiga olmaydi.

6.6. Yakuniy narx buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilishni tugatgandan so'ng, nazorat o'lchovi natijalariga ko'ra, haqqoniy bajarilgan ish hajmiga muvofiq belgilanadi.

6.7. O'zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksi 4-bob 23,24,25-moddalari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 17.09.2021 yildagi №579-sonli qarorining 4-bandiga asosan "Qurilishi markazlashtirilgan manba'lar hisobiga moliyalashtiriladigan obyektlarning boshlang'ich qiymati Davlat statistika qo'mitasi rasmiy saytiga (stat.uz) joylashtirib boriladigan qurilish materiallarining joriy narxlari, mashina va mexanizimlar xizmati uchun o'rtacha narxlar hamda o'rtacha ish haqi ko'rsatkichlaridan foydalangan holda shakllantiriladi" hamda mazkur qarorning 1-ilova 3-bob 29-bandiga asosan "Ekspert

tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlari bo'yicha buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir".

6.8. Taqdim qilingan lokal hulosaga javob hujjatlarining haqqoniyligi, sifati va ishonchliligi uchun buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir.

7. Xulosalar.

Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda "Toshkent viloyati Olmaliq shahar Mustaqillik MFY hududiga Mahalla fiqarolar yig'ini binosini hamda pastki qavati maishiy xizmat ko'rsatish majmuasi bo'lgan yuqori 2, 3, 4, 5-qavatlari turar-joy hamda (Pent-Xausli) binolari bo'lgan 2 ta 5 qavatli turar-joy binolarini qurish" ishlari yuzasidan loyiha smeta hujjatlari kelgusida ko'rib chiqish va kelishish uchun tavsiya etiladi.

Bosh ekspert: Elmurodov Asliddin Kulmurodovich.

Ishtirokchi ekspertlar: Pulatov Dilshod Batirovich, Abdullayeva Nodira Mirzanazarovna, Shakurov Rafael Faxrazeyevich, Ubaydullayev Azizbek Baxodirovich, Abdullayev Otabek Nasrullayevich, Ikromov Muxiddin Sodiqovich, Yo'ldoshaliyev Jahongir Dilshod O'g'li, Elmurodov Asliddin Kulmurodovich, Niyazov Alisher Maxmudovich, Abdullayev Shavkat Rahmatulla O'g'li